Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

INTERAKTIV RAQAMLI DARSLIKLAR ORQALI BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOGNITIV VA IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Dilshod Dovlatboyevich Mirzaakbarov*
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) tadqiqotchisi
✉ mirzaakbarov.dilshod@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda interaktiv raqamli darsliklar asosida bo'lajak pedagoglarning kognitiv va ijodiy salohiyatini rivojlantirish metodikasi ilmiy asoslangan. Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti va Guliston pedagogika universitetlarida 2022–2025 yillar davomida 282 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi. Fanlararo integratsiya tamoyiliga asoslangan shakllantiruvchi tajriba orqali tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan 1,13 barobar yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichiga erishdi.

Kalit so'zlar

interaktiv raqamli darslik, kognitiv salohiyat, ijodiy salohiyat, fanlararo integratsiya, bo'lajak pedagog, metodika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743515

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablar qo'ymoqda. Oliy pedagogik ta'limda joriy etilgan Bloom taksonomiyasiga asoslangan kredit-modul tizimi talabalardan mustaqil, faol va refleksiv o'quv-bilish faoliyatini talab etadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak pedagoglarning axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va innovatsion pedagogik yechimlar ishlab chiqish bo'yicha tayyorgarligi talab darajasida emas.

Shu bois, interaktiv raqamli darsliklar asosida bo'lajak pedagoglarning kognitiv (analitik, refleksiv, tizimli fikrlash) va ijodiy (divergent fikrlash, kreativ yondashuv, innovatsion loyihalash) salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asosda isbotlash zamonaviy pedagogik ta'limning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba-sinov ishlari 2022–2023, 2023–2024 va 2024–2025 o'quv yillarida uch bosqichda tashkil etildi. Aniqlashtiruvchi bosqichda talabalarning kognitiv va ijodiy ko'rsatkichlari dastlabki holati aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda maxsus ishlab chiqilgan interaktiv raqamli o'quv materiallari, multimedia topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyiha faoliyati asosida ta'lim jarayoni tashkil etildi. Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlari taqqoslandi hamda Student t-kriteriyasi va Pearson metodlari yordamida statistik tahlil amalga oshirildi.

Ishlab chiqilgan metodika to'rtta fan integratsiyasiga asoslandi: Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni oshirish, Matematika o'qitish metodikasi, Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari va Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Ushbu integratsiya interaktiv raqamli darslik platformasi orqali amalga oshirildi.

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalari (n=141) nazorat guruhi (n=141) talabalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish 3,96 (Farg'ona DSU: 3,98; Guliston DU: 3,96; Andijon DSPI: 3,94) ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 3,50 da qoldi. Samaradorlik koeffitsienti 1,13 ga teng bo'lib, o'zlashtirish 13,25% ga oshganini ko'rsatdi.

Student t-kriteriyasi natijalari bo'yicha empirik T qiymati 9,7 ni tashkil etib, kritik qiymat T0,95=1,96 dan sezilarli darajada katta ekanligi aniqlandi. Bu esa H0 nol gipotezani rad etish va H1 alternativ gipotezani qabul qilish imkonini berdi. Natijalar interaktiv raqamli darsliklar asosida tashkil etilgan integrativ metodikaning statistik jihatdan ishonchli samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, interaktiv raqamli darsliklar asosida fanlararo integratsiya tamoyilini joriy etish bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini va ijodiy salohiyatini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan metodika uch yillik tajriba-sinov jarayonida o'zining yuqori samaradorligini isbotladi va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida keng qo'llashga tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956.
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
4. Jonassen D.H. Computers as Mindtools for Schools. – Merrill: Prentice Hall, 2000.
5. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. – Cambridge University Press, 2009.